

“IJTIMOIY PEDAGOGIKA” FANINI O‘RGANISH – JAMIYAT RIVOJINING ASOSI

Sarsenbayeva Rayhon Maxanbetovna¹,

Nazarova Gulbahor Abdulkarimovna²

Abstract. Ushbu maqolada “Ijtimoiy pedagogika” fani jamiyat rivojining asosi ekanligi haqidagi ma'lumotlar berilgan. Xususan, “Ijtimoiy pedagogika” fanining asosiy maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti haqidagi ma'lumotlar; 60110100 – Pedagogika ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilari umumiyo‘rtta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fani o‘qituvchisi hamda mahallalarda “Ijtimoiy xodim” sifatida faoliyat yuritishi mumkinligi; Vazirlar Mahkamasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, vazirlar va idoralarning shtat birliklariga kiritilayotgan o‘zgarishlari kabi ma'lumotlar ifodalangan.

Keywords: “Ijtimoiy pedagogika” fani; fanning maqsadi, vazifalari, predmeti, obyekti; 60110100 – Pedagogika ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilari; umumiyo‘rtta ta’lim maktablari; “Tarbiya” fani o‘qituvchisi; mahallalarda “Ijtimoiy xodim” sifatida faoliyat yuritishi; Vazirlar Mahkamasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, vazirlar va idoralarning shtat birliklariga kiritilayotgan o‘zgarishlar.

Introduction.

Ma'lumki, “Ijtimoiy pedagogika” pedagogik fanlarning muhim tarmog‘i bo‘lib, u ta’lim, shuningdek, maxsus ta’lim muassasalarida barcha yosh, ijtimoiy guruhlarga mansub shaxslarning ijtimoiylashuvi (ijtimoiy xayotga moslashuvi) ni o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Ushbu fan muayyan jamiyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlar, jamiyat a’zolarining bir-birlari bilan o‘zaro aloqasi, ma'lum guruhlarga birlashish sabablari, mega, makro va mikro muhitga moslashish jarayoni hamda salbiy ijtimoiy masalalarning kelib chikish asoslarini o‘rganadi.

“Ijtimoiy” (lotincha – socialis – umumiyo‘rta) tushunchasining asosini shaxslar, shaxslararo munosabatlarning turli shakllari bilan bog‘liq jarayonlar tashkil etadi.

Agarda, pedagogika o‘sib kelayotgan yosh avlodlarning ta’lim-tarbiyasi haqidagi fan bo‘lsa, ijtimoiy pedagogika ta’lim-tarbiya jarayonida bolaning jamiyatdagi hayotga qo‘shilishiga bog‘liq qonuniyat va hodisalarni o‘rganadi. Bu o‘rinda shuni ham aytib o‘tish joizki, bolaning jamiyatga “kirish” jarayoni, uning muayyan ijtimoiy tajribani qo‘lga kiritishi (bilim, qadriyat, yurish-turish qoidalari) bilan bog‘liqdir. Buni ijtimoiylashuv deyiladi.

“Ijtimoiy pedagogika” atamasi birinchi martta 1844 da K.Mager tomonidan ta’lim haqidagi muhokamaga kiritildi va A.Disterveg tomonidan tarqatildi.

Pedagogikaning ham, ijtimoiy pedagogikaning ham ob‘ekti – bu bola, biroq o‘rganish predmetlari turlicha. Pedagogikaning o‘rganish predmeti bolani tarbiyalash

¹ ISFT Instituti “Psixologiya va pedagogika” kafedrasи dotsenti

² ISFT Instituti “Psixologiya va pedagogika” kafedrasи 23-PDB-03 akademguruh talabasi



qonuniyatlari hisoblansa, ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlaridir.

Shu sababli, ijtimoiy pedagogika jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi, hamda insonlar bir-birlari bilan qanday muomalaga kirishishlarini, nima uchun bir guruhga birlashishlarini va jamiyatning boshqa ijtimoiy masalalarini aniqlashga harakat qiladi. Shuningdek, u bu muammolarni ijtimoiy pedagogika vazifalariga mos ravishda o‘rganadi. Bugungi kunga kelganda ijtimoiy pedagogika mustaqil fan sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Hozirda uning nazariy va amaliy faoliyati sohasiga mакtab va maktabdan tashqari muassasalardagi tarbiya va qayta tarbiya, bolalar uylari, qariyalar uylarida yashovchilarga g‘amxo‘rlik, huquqbuzarlar bilan ishslash kabilar kiradi.

Ijtimoiy pedagogika o‘z nomiga ko‘ra sotsium, ya’ni jamiyat, jamoa bilan shug‘ullanadigan fan hisoblanadi. Shu bois, uni jamiyat yoki jamoa tarbiyasi ham deyishimiz mumkin.

O‘z navbatida mazkur mutaxassiliklarning kasbiy faoliyati ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beruvchi bir qator tafovutlarga ham ega. O‘qituvchi o‘zining asosiy ta’lim berish vazifasini bajarar ekan, yosh avlodga bilim va jamiyat tomonidan orttirilgan ijtimoiy madaniyat tajribasini o‘rgatadi. Ushbu jarayonda bola tarbiyalanadi va shakllantiriladi.³

Jamiyat, jamoa tarbiyasi deganda o‘smir-bola shaxsi tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ta’limiy va tarbiyaviy ishlarni nazarda tutish mumkin. Ya’ni, bevosita shaxslararo munosabatlar jarayonidagi tarbiyaviy ta’sir, shuningdek ijtimoiy institutlar faoliyati (xayriya jamg‘armalari, tashkilotlar, jamiyatlar va assotsiatsiya⁴lar) ning tarbiyaviy ta’siri nazarda tutiladi.

“Ijtimoiy pedagogika” fanining asosiy maqsadi:

- jamiyatda faoliyat yuriradigan har bir shaxsning hayotida uchraydigan ijtimoiy muammolarning oldini olish va o‘z vaqtida bartaraf etish;
- boshqa shaxslarga nisbatan insonparvarlarcha munosabatda bo‘lish;
- ta’limiy va tarbiyaviy muammolar bilan muntazam shug‘ullanish;
- keksalar, nogironlar, kasallar, boquvchisini yo‘qotganlar faoliyatini o‘rganish, ularga amaliy yordam berish;
- tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan ishslash;
- mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalar holidan xabar olish;
- foxishabozlik, giyohvandlik, narkomaniya va qonunbuzarlikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish kabilar.

Shuningdek, faoliyt yuritayotgan ijtimoiy “autsayder⁵lar”, ya’ni qariyalar, nogironlar, yolg‘iz yashovchilar, iqtisodiy nochor aqvolda yashovchilar va xalqning shu kabi boshqa tabaqalariga kiruvchilarga amaliy yordam berish ijtimoiy pedagogikaning asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

³ Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Moliya-iqtisod”, 2019. – 388 b.

⁴ ASSOTSIATSIYA (lot. associo – birlashish, qo‘shish) – umumiy maqsadga erishish uchun tuzilgan uyushma, ittifoq

⁵ AUTSAYDER (inglizcha: outsider – chet, begona) — qoloq, oxirgi. Musobaqada oxirgi o‘rinlardan birini egallab kelayotgan sportchi yoki jamoadir



“Ijtimoiy” (lotincha – socialis – umumiy, jamoa) tushunchasining asosini hamda u shaxslar, shaxslararo munosabatlarning turli shakllari bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni tashkil etadi. Shuningdek, “Ijtimoiy pedagogika” ning asosiy **vazifasi** ijtimoiy tarbiya muammolarini o‘rganishdan iborat. Demakki, uning **obyekti** ijtimoiy hayotiy tarbiyaviy jarayonlar hisoblansa, **predmeti** esa, shaxsning shakllanishiga ijtimoiy muhitning ta’sir qonuniyatlari, jumladan oilaning, ta’lim-tarbiya muassasalarining, mahallaning, tashkilot va birlashmalarning, jamqarmalar kabilarning tarbiyaviy ta’siri hisoblanadi. Demak, ijtimoiy pedagogikaning **asosiy predmeti** – **bu shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni hisoblanar ekan.**

Ijtimoiy pedagogika, ayniqsa, “og‘ir guruh”larga alohida e’tibor qaratadi va amaliy yordam beradi. Bu guruhlarga taqdir taqozasi bilan og‘ir vaziyatlarga tushib qolgan shaxslar kiradi. Bular: narkomanlar, ishsizlar, fohishalar, jinoyatchilar, qamoqda o‘tirib chiqqanlar, jinoiy guruhlarga va man etilgan diniy sekta⁶larga o‘zları bilmagan holda kirib qolgan shaxslar kiradi.⁷

Shuningdek, ijtimoiy pedagogika katta yoshdagilar va qariyalarni; ishlab chiqarish jarayonlaridagi rahbar va xodimlarning o‘zaro munosabatlarini; ayollar tarbiyasi, kasbidan qoniqmaganlik, qolaversa dam olishga, ruhiy kasallangan, ta’lim olishdagi muommalar, tarbiyasi oq‘ir o‘mir bolalar kabilarning muammolarini nazardan chetda qoldirmaydi, imkon qadar ularga amaliy yordam beradi. Ijtimoiy qayotning turli javhalaridagi shu kabi yordamga muxtoj bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy xodimlar tomonidan ham nazariy ham amaliy yordamlashadilar.

Ijtimoiy pedagogika fani O‘zbekistonda ham dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlarda ham ta’lim-tarbiya muassasalarida keng o‘rganilib kelinmoqda. Biroq, sobiq Ittifoq davrida ijtimoiy pedagogika yutuqlari e’tiborga olinmadi. Bunday muammolar shaxsga, hamkorlik an’analariga, rahm-shavqatga, milliy an’analarga befarqlik bilan qarash holatlari kuzatildi. Bu ijtimoiy tarbiya sohasi mutaxassislar oldida turgan asosiy tarbiyaviy masalalarni qiyinlashtirib yubordi. Ijtimoiy pedagogikani fanini rivojlantirish esa, mazkur yo‘nalishlarda faoliyat yuritadigan mutaxassis kadrlar tayyorlash zaruriyati tugiladi.

Shu o‘rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini ta’kidlash o‘rinlidir: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”⁸.

Bugungi kunda 60110100 – Pedagogika ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilari umumiyo‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fani o‘qituvchisi hamda mahallalarda “Ijtimoiy

⁶ SEKTALAR – mazhab, maslak; asosiy, hukmon diniy yo‘nalishdan ajralib chiqqan guruh. Sektalar odatda mavjud diniy yo‘nalishlarga qarshi muxolif harakat sifatida vujudga kelgan

⁷ Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 234 b.

⁸ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini bирgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatasining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: O‘zbekiston, 2016



xodim” sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bevosita ijtimoiy pedagog lavozimlarida ishlashlari mumkin bo‘ladi.⁹

Pedagogika ta’lim yo’nalishi bitiruvchilari nafaqat ta’lim-tarbiya maskanlarida o‘qituvchi lavozimida, balki mahallalarda “Ijtimoiy xodim” lavozimida ham faoliyat yuritishi mumkin. Quyida, shu haqida fikr-mulohazalar yuritiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi PQ-330-sonli qaroridagi 6-ilovasida quyidagilar belgilab berilgan (1-rasm):

1-rasm

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2024 йил 23 сентябрдаги ПҚ-330-сон қарорига
6-илова

Вазирлар Маҳкамаси, Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги, вазирлик ва идораларнинг штат бирликларига киритилаётган ўзгартиришлар

Т/р	Ташкilot nomi	Штат бирликлари сони	
		Камайтирилади	Қўшилади
1.	Вазирлар Маҳкамаси		8
	шундан:		
	Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги, вазирлик ва идораларнинг штат бирликларига киритилаётган ўзгартиришлар		8
2.	Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги	93	
3.	Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги	2	
4.	Солик қўмитаси	2	
5.	Маҳаллабай ишлаш ва тадбиркорликни ривожлантириш агентлиги	1	
	шундан:		
6.	Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги шу жумладан: янги киритиладиган Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги директорининг ўринbosари штати ижтимоий ходимлар гурӯхлари санатория тишидағи мактаб-интернатларнинг фаолиятини таомиллаштириш муносабати билан бўшайдиган штатлар ҳисобидан	4 630	
		1	
		4 540	
7.	Оила ва хотин-қизлар қўмитаси	854	
	шундан:		
	маҳалладаги хотин-қизлар фаоли	3 686	
	* Оила ва хотин-қизлар қўмитаси маҳалладаги хотин-қизлар фаоли сонидан келиб чиқуб, уларни барча маҳаллаларга қайта бирюзлайди.	3 686	

* Оила ва хотин-қизлар қўмитаси маҳалладаги хотин-қизлар фаоли сонидан келиб чиқуб, уларни барча маҳаллаларга қайта бирюзлайди.

Vazirlar Mahkamasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, vazirlar va idoralarning shtat birliklariga kiritilayotgan o‘zgarishlar: bunda, tashkilot nomi va shtat birliklari sonining kamaytirilgani yoki qo‘shilgani haqidagi ma’lumotlar o‘z ifodasini topgan.

1. “Vazirlar Mahkamasi” shundan: iqtisodiyot, sanoat, moliya bank, davlat aktivlari, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari kotibiyati tarkibida yangi tashkil etiladigan Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, aholi bandligini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish bo‘limi” 8 shtat birliklari soniga qo‘shiladi.

2. “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” 93 shtat birliklari soniga kamaytiriladi.

3. “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” 2 shtat birliklari soniga kamaytiriladi.

4. “Soliq qo‘mitasi” 2 shtat birliklari soniga kamaytiriladi.

⁹ R.M.Sarsenbayeva. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati. “Tarixiy tajribalar, barqarorlik va insoniy qadriyatlar hamda zamonaviy yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasida “Fidoyi xizmatlari uchun” ko‘rik tanloving xalqaro ilmiy-amaliy materiallari to’plami. 3 qism. “Scientific Academy” Ilm-ma’rifat markazi ©. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 384-394 B.B.



5. “Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi” 1 shtat birliklari soniga kamaytiriladi.

6. “Ijtimoiy himoya milliy agentligi” 4 630 shtat birliklari soniga qo’shiladi. Shu jumladan, yangi kiritiladigan “Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining o’ribbosari” 1 shtat birliklari soniga qo’shiladi. Hamda, “Ijtimoiy xodimlar guruhi” 4 540 shtat birliklari soniga qo’shiladi. Shuningdek, “Sanatoriya tipidagi maktab-internatlarning faoliyatini takomillashtirish munosabati bilan bo’shaydigan shtatlar hisobidan” 854 shtat birliklari soniga kamaytiriladi.

7. “Oila va xotin-qizlar qo’mitasi”, shundan mahalladagi xotin-qizlar faoli¹⁰ 3 686 shtat birliklari soniga kamaytiriladi.

Bunday tashqari 60110100 – Pedagogika ta’lim yo’nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari o‘qishni tamomlagandan so’ng, quyida nomlari keltirilgan ta’lim-tarbiya muassasalari va tashkilotlarida faoliyat yuritishlari mumkin:

- ✓ umumiy o’rta, o’rta maxsus, professional ta’lim muassasalarida;
- ✓ mактабдан ташқари та’лим муассасаларда тарбија фанларидан замонавиј педагогик ва ахборот технолоџијаларидан фойдалangan holda дарс берishi;
- ✓ педагогика та’лим фанлар yo’nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo’lib ishslash;
- ✓ олий та’лим тизимда кабинет мудири, laborant va unga tenglashtirilgan lavozimlarda ishlashi;
- ✓ maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi idoralarda;
- ✓ ta’limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida;
- ✓ mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma’naviyat va ma’rifat markazlarida;
- ✓ davlat boshqaruv organlari, o’rta, o’rta maxsus kasbiy ta’limning davlat va nodavlat muassasalarida;
- ✓ ishlab chiqarish korxonalari laboratoriylarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo’ladi.

Shuningdek, ijtimoiy xodim lavozimi deyarli barcha ijtimoiy sohalarda joriy etilgan. Ular sog’liqni saqlash muassasalarida (ruhiy nosog’lom, giyohvand bolalar bilan ishslash), aholini ijtimoiy himoyalash muassasalarida (imkoniyati cheklangan bolalar reabilitatsiya markazlarida, voyaga yetmaganlar reabilitatsiya markazlarida), ichki ishlar organlari tarmog’idagi muassasalar (maxsus yopiq tarbiya maskanlari) kabilarda ishslash imkoniyatlari mavjuddir.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, ijtimoiy pedagog ijtimoiy-pedagogik jarayonlarni nazorat qilishi, yoshlar jinoyatchiligining oldini olishi, maktab, ichki ishlar bo’limi, mahalla va ta’lim-tarbiya muassasalarida xotin-qizlar qo’mitasi faollari va yetakchilar bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi zarur. Shuningdek, ijtimoiy-pedagog:¹¹

¹⁰ Oila va xotin-qizlar qo’mitasi mahalladagi xotin-qizlar faoli sonidan kelib chiqib, ularni barcha mahallalarga biriktiradi

¹¹ R.M.Sarsenbayeva. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati. “Tarixiy tajribalar, barqarorlik va insoniy qadriyatlar hamda zamonaviy yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasida



- mazkur faoliyat samaradorligi uchun xizmat qiladigan obyektiv jarayonlar va hodisalarini hisobga olib borishi;
- tarbiyaning noqulay sharoitiga va shaxsni noto‘g‘ri yo‘lga kirishining boshlanishiga o‘z vaqtida e’tibor berishi;
- ijtimoiy-pedagogik istiqbol metodlaridan samarali va o‘z vaqtida foydalanishi;
- o‘s米尔 shaxsning individual-psixologik va ijtimoiy sifatlarini hisobga olishi kabilarga alohida e’tibor berishi talab etiladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, ta’lim-tarbiya muassasalari faoliyatiga o‘quvchilar soniga qarab maxsus ijtimoiy pedagog shtati ajratilsa nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi. Chunki, bizga ma’lumki, bugungi kunda asosan umumiyo o‘rta ta’lim maktablarining ayrim o‘smirlari tomonidan sodir etilayotgan nohush holatlarning kamayishiga aynan ijtimoiy pedagog faoliyati ijobjiy ta’sir etib, sababchi bo‘lib ushbu holatlarning oldi olingan bo‘lar edi. Masalan, o‘quvchining mактабга sababsiz bormasligi, mактабга kechikib borishi, darsdan sababsiz qochishi, dars qilmasligi, ko‘cha kuyda bekordan sang‘ib yurishi kabi salbiy holatlar ushbu o‘quvchilarning yomon guruhlarga qo‘shilib qolmasligiga hamda alkogolizm, narkomaniya, o‘g‘irlik, bosqinchilik, zo‘ravonlik, kashandalik kabi salbiy holatlarning sodir bo‘lmasligiga kim kafolat beradi.

Shunday ekan, ijtimoiy pedagog yuqorida nomlari keltirilgan ta’lim-tarbiya muassasalarining o‘quv-uslubiy, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy yo‘nalishlaridagi faoliyatining ko‘ngildagidek amalga oshishi uchun juda muhim kasb hisoblanadi. Ushbu kasbni hozirgi kunda ta’lim-tarbiya faoliyatiga joriy etish davr talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni
2. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston respublikasi Prezidentining PF 60-sonli Farmoni. 2022 yil 28-yanvar.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatasining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: O‘zbekiston, 2016
4. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 234 b.
5. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlар metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Moliya-iqtisod”, 2019. – 388 b.
6. R.M.Sarsenbayeva. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati. “Tarixiy tajribalar, barqarorlik va insoniy qadriyatlar hamda zamonaviy yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasida “Fidoyi xizmatlari uchun” ko‘rik tanloving xalqaro ilmiy-amaliy materiallari to’plami. 3 qism. “Scientific Academy” Ilm-ma’rifat markazi ©. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 384-394 B.B.

“Fidoyi xizmatlari uchun” ko‘rik tanloving xalqaro ilmiy-amaliy materiallari to’plami. 3 qism. “Scientific Academy” Ilm-ma’rifat markazi ©. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 384-394 B.B.



7. Zaripova, S., & Gafurova, K. (2024). FEATURES OF TEACHING ENGLISH PHONETICS TO PRESCHOOL CHILDREN. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 289-292.

8. Zaripova, S. (2025, January). CLASSROOM MANAGEMENT AND TEACHER'S APPROACH. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 2, No. 1, pp. 34-38).

